

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA AXBOROT RESURLARI INTEGRATSIYASI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Jasur Xurramov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrası
Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi 2-bosqich magistranti

Ulug’bek Mamatmuminov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrası
Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi 2-bosqich magistranti
e-mail:mamatmuminovulugbek3@gmail.com

Annotatsiya:

Maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida ona tili va o’qish darslarida axborot-resurslari integratsiyasini rivojlantirish texnologiyasi va uning ta’lim tizimida qo’llanilishi haqida ma’lomotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Kreativlik, texnologiya, innovatsiya, integratsiya, axborot-resurslari, zamonaviy yondashuv, pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, o’qitish metodi, kompetensiya, differensiatsiya, interfaol uslublar.

Yaxshi ta’limning belgisi eng yuqori mavzular
haqida oddiy so'zlar bilan gapirishdir.

Ralf Valdo Emerson

Boshlang’ich sinflarda o’quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Ta’lim amaliyoti ko’rsatishicha, maktab ta’limida fanlararo aloqadorlikni yo’lga qo’yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo’layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o’quvchilarning bilimlarni ongli o’zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o’rinni egallaydi. Darsdan tashqari mashg’ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o’zlashtirgan bilim, ko’nikma va malakalarini erkin qo’llash imkoniyatini beradi[6].

Ta’lim yosh avlodni mutsaqil hayotga tayyorlashning asosiy komponentlaridan biridir. Mutsaqillik yillarida jamiyatning yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga qo’yayotgan talablari, ilm-fan taraqqiyoti natijasida umumta’lim maktablaridagi ta’lim mazmunida keskin o’zgarishlar sodir bo’ldi. Fan taraqqiyoti ta’limning texnologik bazasi, jamiyat a’zolarining yashash sharoitida keskin o’zgarishlarga olib keldi. Jumladan, ilm-fan yangiliklari, zamonaviy texnologiyalar jamiyatning ma’naviy qiyofasini o’zgartirib yubordi[19]. Ilm-fan yutuqlari va ularning

insonlar hayotidagi o'zni rivojlangan mamlakatlar maktab ta'limi mazmuni va strukturasi ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o'quv soatlari keskin qisqartirildi, o'quv materiallari mazmuni modernizatsiya qilindi. O'zbekistonda xorijiy tajribadan foydalanilgan holda Milliy o'quv dasturi ishlab chiqiladi. Bu haqda Prezidentning "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" (PF-6108-son06.11.2020 y.) farmonida so'z boradi[7].

Turli o'quv predmetlarini o'qitishda soatlarnin qisqarishi, o'quv materiallari mazmunining ilmiy jihatdan murakkablashishi natijasida o'quvchilarga qo'yilayotgan talablar kuchaydi, ta'lim sifatida birmuncha pasayishlar kuzatilmoqda. O'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirishida sodir bo'layotgan bunday pasayishlar yosh avlodning intellektual rivojlanishiga ta'sir etmay qolmaydi. Bu holat esa o'qituvchilardan o'quvchilarga bir fan doirasida bog'liqliklar asosida turli hodisalarni o'rganishni taqozo etadi.

Boshqa o'quv fanlaridan o'zlashtirilgan va qo'llaniladigan atamalar, o'quv materiallarining xususiyatlari, ta'lim vositalari, o'quv materialini tanlash qonuniyatlari, o'quv fanlararo aloqadorlik xususiyatlari belgilab berilishi kerak. O'quvchilar topshiriqlarni bajarish davomida nazariy bilimlarni qo'llay olishlari kerak. O'quv materiallari hajmini belgilashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur[20]. Bu albatta, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jismoniy va aqliy mehnat o'quv materiallarini idrok etish jarayonining rag'batlantiruvchi omili ekanligini hisobga olish lozim. Shuning uchun o'quv jarayonini o'quvchilarning yoshi va fiziologik imkoniyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Ularda o'quv materialiga nisbatan qiziqish uyg'otish va diqqatini o'zlashtirishga jalb etish darkor. O'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari muntazam murakkablashib, o'quv va amaliy masalalarni yechish jarayonida kengayadi. Ushbu murakkablashish ularning aqliy va jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyatga ega[7].

Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini o'rganishda berilayotgan va taqdim etilayotgan o'quv materialining mazmuni o'quvchilarning tushunishlari uchun obyektiv borliq manzarasi asosida haqqoniy tarzda aks ettirilishi lozim. O'quvchilar o'rganilayotgan o'quv fani bo'yicha eng yangi ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. O'quvchilar amaliy faoliyatiga dastlabki topshiriqlarni bajarish uchun aniq ma'lumotlarni talab qiladigan o'quv materiallarini kiritish lozim[21].

Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari matematik tushunchalarsiz o'zaro aloqadorlik xususiyatini yo'qotadi. O'quvchilarda matematik tushunchalar asosida muayyan mavzu bo'yicha tasavvur hosil qilinadi. Bu tasavvur nazariy va amaliy mashg'ulotlar yordamida yanada mustahkamlanadi[8].

Didaktik tamoyillar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun quyidagi vositalar talab qilinadi: o'quv anjomlari, texnik vositalar, modellar. Shu bilan bir qatorda mahalliy omillarni hisobga olish, foydalaniladigan vositalarni tanlash ularning xususiyatiga

muayyan ta'sir ko'rsatishini ta'kidlash kerak. Masalan, o'quv fanlari aloqadorlik qonuniyatlariga binoan amaliy mashg'ulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq real vaziyatlardan foydalanish asosida tashkil etilishi ham mumkin. Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari bo'yicha darslarda o'quv fanlari aloqadorlik matematika asosida amalga oshiriladi. O'qitishning fanlararo aloqadorlikka asoslangan tizimi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bilan uzviy bog'liqdir[9]. O'qitish jarayonida ushbu tamoyillarni amalga oshirish uchun faqatgina nazariy bilimlarning muayyan hajminigina emas, balki uning ilg'or sohalari, asosiy kasblar, o'qitish texnologiyasini rivojlantirish tendentsiyalari, iqtisod va mehnatni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi bilan mos ravishda tashkil etish asoslari haqidagi bilimlarni ham taqdim etish zarurdir[22]. O'quvchilarga turli kasblar haqidagi ma'lumotlarni birgina fan o'qituvchisi yetkazib bera olmaydi. Bu muammoni hal etishda barcha o'quv fanlarining o'qituvchilari birgalikda fanlararo aloqadorlikni ta'minlagan holdagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.

O'quv fanlari aloqadorlikning barcha imkoniyatlaridan didaktik tamoyillarga tayangan holda amaliy mashg'ulotlarni maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish o'quvchilarning nazariy-amaliy faoliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda didaktik tamoyillar amaliy topshiriqlarini bajarish, o'rganilayotgan nazariy hodisani to'liq tasavvur qilish imkonini beradi[10].

Bu didaktik tamoyillar o'quv predmeti mazmuni haqida ko'rgazmali tasavvurni shakllantirishda asos hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda bu tasavvurlar o'rganilayotgan haqqoniy vaziyat, uning modelini o'rganish davomida yuzaga keladigan tasavvur kabidir. Didaktik tamoyillarga tayangan holda o'quv fanlari aloqadorlikni ta'minlash lozim[23]. Ko'pchilik hollarda dars jarayonida o'quvchilarning o'zlari haqqoniy hayotiy vaziyatlar modellarini qurishadi. Ba'zi tushunchalarning mavhumligini tushunish uchun o'quvchilarda haqqoniy vaziyatlarni shakllantirish, modellarni yaratish bo'yicha ko'nikma va malakalarini muntazam, maqsadga muvofiq tarzda rivojlantirish zarur. Didaktik tamoyillar o'quvchilarda o'rganilayotgan muammoning muhim holatlarini ajratib olish, mantiqiy ma'lumotlarni to'liq tahlil qilish, ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlariga xos atamalarni fanlararo aloqadorlik asosida o'zlashtirish, hodisani qiziqarli jihatlarini aniq va ravshan ifodalash, ularning anglash imkoniyatlarini kengaytiradi[11].

- ✓ Falsafiy, umumpedagogik, didaktik, psixologik va uslubiy adabiyotlarning
- ✓ tahlili hamda malakali o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirib, biz
- ✓ boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv fanlarini o'zaro bog'lab o'rganish asosida ularning bilish faoliyati, darslarni o'zlashtirish samaradorligini rivojlantirishda o'quv fanlari aloqadorlikning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatishni lozim topdik:

- ✓ Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining ilmiy asoslarini o'quvchilar ongiga yetkazishda ular mazmunida matematik tushunchalarning umumlashtirgan holda fanlararo aloqadorlikni tizimlashtirish funksiyasi[24];
- ✓ Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari asosini o'zlashtirish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish;
- ✓ Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini matematik tushunchalar asosida o'zlashtirishning ilmiy jihatdan asoslangan tizimini yaratish;
- ✓ turli o'quv predmetlarini o'rganish asosida o'quvchilarning ijtimoiygumanitar turkumdagi o'quv fanlaridan o'zlashtirgan bilimlari izchilligini ta'minlash[12];
- ✓ matematik tushunchalar asosida ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish yordamida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish;
- ✓ o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash asosida o'quvchilarda milliy ma'naviy qadriyatlar, ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirish.

Olingan natijalar o'qituvchiga amaliyotda o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanishi zarurligi haqida xulosaga kelishga imkon beradi. O'quv fanlariaro aloqadorlikning dolzarbligi quyidagilarda ko'rinadi:

- ✓ bir dars doirasida o'qitish shakllari va faoliyat turlarini almashtirish;
- ✓ o'qituvchining darsga tayyorgarligini osonlashtirish;
- ✓ darsni ko'rgazmali, illyustrativ tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish;
- ✓ o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik faoliyatlarini tashkil etish;
- ✓ o'qituvchi va o'quvchi uchun o'rganiladigan materiallarni tayyorlashda qulaylik yaratish[12].

Dars jarayonini tashkil qilish va o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini takomillashtirishda o'quv fanlariaro aloqadorlikka muammoli yondashish zarurdir. Ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan dars davomida o'quv va ijodiy masalalar hamda mavjud bilim, malakalar darajasi, o'quvchilarning aqliy rivojlanishi o'rtasida vujudga keladigan foydali qarama-qarshiliklardan iborat[25]. O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash bo'yicha o'qituvchilar tajribalarini umumlashtirib, fanlararo aloqadorlikda tashkil etiladigan darslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Ko'rgazmalilik asosida tashkil etiladigan darsda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan o'quv fanlariaro aloqador elementlarning turli jadval va modellarda ifodalanganligi asosida. Chunonchi, boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish yoki tasviriy san'at darslarida mazmunan o'xshash bo'lgan "Qish", "Bahor" kabi mavzularni o'rganish bo'yicha[14].
2. Mavzularning bir-biriga o'xshashligi: o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismida o'quv fanlariaro aloqadorlikdan foydalanish asosida darsning samaradorligini oshirish.

3. Umumlashtirish-o'quv fanlarining umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini mukammal o'rgatish maqsadida turli o'quv fanlari bo'yicha maxsus tashkil etiladigan takrorlash-umumlashtirish darslarida o'quvchilarning egallagan bilimlarini takrorlashga imkon yaratish[26].

Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi[15]:

- ✓ o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish;
- ✓ o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish;
- ✓ darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- ✓ O'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlashda o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishning turli vositalaridan unumli foydalanish. Chunonchi, aralash o'quv kurslari bo'yicha, muammolilik, ko'rgazmalilik, mustaqil ishlar, individual topshiriqlar tashkil etish yordamida bunday maqsadga erishish mumkin.

O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida o'rganilayotgan dars materiallarini o'quvchilarga chuqurroq singdirishda boshqa dars materiallaridan foydalanish, mazkur materiallarning mazmun jihatidan o'zaro aloqador bo'lishi. Bunda, takrorlovchi, umumlashtiruvchi, yangi materialni o'rganish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat darslari ham bo'lishi mumkin. Fanlararo aloqadorlik o'quv jarayonining ushbu ziddiyatlarini yanada boyitadi, ular asosida yangi qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bu o'quv predmetidan o'rganilayotgan bilimlarni o'zlashtirish va o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida masalalarni yechish va boshqa turli fanlardan bilimlarni o'zlashtirishda ularni qo'llashni bilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir[16].

O'quvchilarning bilish faoliyatlari va o'quv fanining uyg'unlashtirilgan mazmuni o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida muammoli vaziyat yuzaga keladi. O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslar davomida o'quvchining fikrlash faoliyatini determinatsiya mexanizmlari asosida tahlil qilish, o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida bilim va tushunchalarni umumlashtirish yo'li bilan bajariladi. Buning natijasida harakatlarning umumlashtirilgan maqsadi paydo bo'ladi. O'quv fanlariaro aloqadorlik asosida muammoni yechishning har tomonlama mukammal dasturini ishlab chiqish - bu doimiy ijodiy jarayondir. Chunki bunday dasturlar turli o'quv fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlardan mazmunli vaziyatda foydalanish usullarini tahlil qilish va umumlashtirish yo'li bilan yaratiladi. Integra tsiya lashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yo'nalish faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlari alohida

ko'rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. U maqsadda «O'z yulduzingni yoq», «Guldatsada sening guling», «Sen sevgan kitob» kabi o' yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat - e'tibor birgina bolaga qaratiladi. (Masalan, tug'ilgan kuni munosabati bilan osmonda yangi yoritilgan yulduz uning nomi bilan ataladi yoki katta gulda tsa bayram egasiga yoqadigai gul bilan boyitiladi). Sevimli kitob esa sinf kutubxonasini to'ldirish bilan birga egasining (imzosi)ga ega bo'ladi[17].

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashish, ularning badiiy faolligini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni uddaburonlikni, epchillikni ra g' batlantirish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan bolalarning she'r va hikoyalar yozish, yangi raqs o'ylab topish, shirin taom pishirish, biror asbob yaratish, o'simliklardan shakllar yaratish kabi mustaqil ijodiyoti turli yo'llar bilan rag'batlantirib borish taqozo etiladi. Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi.

Mashg'ulotlar bola larda ko'rish va eshitish qobilyatlarini (materiallar sifatini (fakturasini) ushlab ko'rib ajrata bilish qobil yati), sezish tuy g'ularini (hid va ta'mni ajrata olish q obilyatlarini) rivojlantirishga yordam beradi. «Ovchilar», «Hayvonlar», «Iz quvarlar» o'yinlarini o'ynash bolalarga faqat umumiy bilimlarga ega bo'lish, masalalarni mantiqan hal eta bilishgina emas, insonga berilgan barcha his -tuyg'ular ham muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Ularni rivojlantirish o'ta nozik tuyg'ularning shakllanishiga yo'ldir. Bunga yorqin obrazlarga, san'at asarlariga, tabiat bilan zavqlanishga murojaat qilish orqali erishish mumkin[18].

Bolalarda salbiy, xunuk, yomon narsalarga ham emotsional munosabatini rivojlantirish lozim . Bunga ertaklar o'qish, turli sahna ko'rinishlari qo'yish yordam beradi. Bolaning his-tuyg'ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq bola faoliyatiga harakat qilishga, o' z holatini badan harakatlari, imo - ishoralar, raqs orqali ko' rsatib berishga imkon beruvchi mashqlarni kiritish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyov Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
2. Mirziyov Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. "O'zbekiston" 2017
3. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
4. Mavlonova R.A., To'raeva O.T., Xoliqberdiev K.M. -«Pedagogika» T., «O'qituvchi » - 2008-y.
5. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. "Pedagogika" – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010-y.

6. Abdunabievich, F. A., Ugli, F. O. B., & Norbutaevna, N. D. (2022). TYPES OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES THAT CORRESPOND TO THE SPECIFICS OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION AND TEACHING OF STUDENTS.
7. Abdurazakov, F. A., & Meliev, S. K. (2022). Interactive Methods Used In The Formation Of Creative Activity (On The Example Of Primary School Students). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 257-262.
8. Abdurazakov, F. A., & ugli Odinaboboev, F. B. (2022). PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF USING MODULE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION ON THE BASIS OF MODERN APPROACHES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 173-180.
9. Baxriddin o'g'li, F. O., Abdunabiyevich, F. A., & Norbo' Tayevna, N. D. (2022). IMPROVING VOCATIONAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY DEVELOPING PRIMARY MECHANISMS OF NATIONAL CRAFTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 577-580.
10. Sharafutdinova, K. G. (2020). Destruction of family relations psychoprophylaxis family-neighborhood-educational institution cooperation. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1000-1007.
11. Sharafutdinova, K. G. (2021). THE ROLE OF TEMPERAMENT IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL AND DESTRUCTIVE INDIVIDUAL RELATIONSHIP STYLE. *Theoretical & Applied Science*, (8), 210-214.
12. Sharafutdinova, K. G., Kulmatatova, F. K., & Haydarova, S. (2021). The role of cognitive psychology in the elimination of destructive behavior. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(4), 957-964.
13. Шарафутдинова, Х. Г. (2021). OILADA DESTRUKTIV SHAXS XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 231-236.
14. Шарафутдинова, Х. Г., & Бердиева, М. М. (2018). ПРОБЛЕМА ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОТНОШЕНИЯ К РЕБЁНКУ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ. *Гуманитарный трактат*, (25), 89-91.
15. Шарафутдинова, Х. Г., & Нормуминова, Д. Э. (2020). Преодоление тревожности с помощью когнитивно-поведенческой психотерапии. *Педагогическое образование и наука*, (1), 124-127.
16. Холбоева, Г. У. (2016). Физическое воспитание детей дошкольного возраста. *Евразийский научный журнал*, (6), 462-464.
17. Холбоева, Г. У. (2016). Содержание и методика проведения физкультурных досугов в дошкольных учреждениях. *Вестник современной науки*, (6-2), 131-133.
18. Xolboyeva, G. U. (2022). MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARIINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI,

- PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TALABLARI. Academic research in educational sciences, 3(3), 792-794.
19. Холбоева, Г. У. (2020). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TALIM TARBIYA BERISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 4).
20. Kholboyeva, G. U. (2020). IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE EDUCATORS FOR THE FORMATION OF ECOLOGICAL LITERACY OF CHILDREN. Theoretical & Applied Science, (7), 355-359.
21. Altibaeva, G. M. (2020). IMPROVING THE METHODOLOGY OF CHILDRENS SPEECH DEVELOPMENT THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS OF FUTURE EDUCATORS. Theoretical & Applied Science, (7), 82-84.
22. Алтибаева, Г. М. (2016). Подготовка детей в школе в условиях дошкольного образовательного учреждения. Евразийский научный журнал, (6), 459-461.
23. Majitovna, A. G. (2022). Processes of formation of intellectual abilities of preschool children by means of innovative technologies. World Bulletin of Social Sciences, 7, 73-74.
24. Алтибаева, Г. М. (2016). ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ДЕТСКИХ ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ. Вестник современной науки, (6-2), 15-18.
25. Алтибаева, Г. М. (2016). ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ С СЕМЬЯМИ ВОСПИТАННИКОВ. Вестник современной науки, (6-2), 19-22.
26. Altboeva, G. (2021). Processes Of Formation Intellectual Abilities of Preschool Teachers Through Innovative Technologies. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 3, 18-21
27. Tavsiya etiladigan internet resurslari:
1. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti.
 2. <http://www.edunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.
- 28.3. [http://www.scholar.urc.ac.ru/courses/telecom-maktabda-telekommunikatsiyani o'qitish uslubiyati.](http://www.scholar.urc.ac.ru/courses/telecom-maktabda-telekommunikatsiyani-o'qitish-uslubiyati)